

FARZANDLARINGIZ KELAJAGIGA BEFARQ BO'LMANG!

Andijon viloyati Marhamat tumani 2-sonli maktab psixologi

Sayyoraxon Atajonova

Qizim ertalab turishi qiyin. Tursa ham darrov asabiylashib, xarxasha qiladi. Bizning jonimizni hiqiqildog'imirizga keltirib yig'laydi. Na yupatganimizga ko'nadi va na tanbehimizga. Nimadan noroziligini o'ziyam aytmaydi, biz ham tushunolmaymiz.

(Bir onaning yozdirishidan).

Anatatsiya: Bugungi kunda bolalarda injiqlik , qaysarlik, bexollik va gap olmaslik xolatlari ko'p kuzatilmogda .Aslida buning sabablari turli xil biroq xozirda barcha ota-onalar mobil aloqaga vositasini mukkasidan ketib farzandlari kelajagiga befarq bo'lmoqda. Ularni bezovta qilmasliklari maqsadida bolalarini mobil telfondagi turli xil videlar, musiqalar va multfilmlarni ko'rsatish orqli farzandlarini ovitishmoqda shu sabab bollalar kop vaqt nurlanish oqibatida farzandlar ruhiy holatlarida og'ishlar paydo bolayotgani dolzarb muamo bo'lmoqda.Maqolada bu muamolarni yechimi va kerakli psixologik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: Ilk bolalaik, o'spirinlik davrdagi bolalardagi ruhiy holatlari o'zgarishlari. Ota-onalar farzandlar oldidagi gayri-ijtimoiy xarakatlari.

Bolaning turish-turmushini sinchiklab surishtirdim. Bog'chasidan kelarkanu, telefonga yopisharkan. Ota-onasi uning o'zi bilan o'zi ovora bo'lib

Modern education and development

ketganidan xursand, befarq. Xatto kechki ovqati mahalida ham telefon qo'lidan tushmaydi. Turli o'yinlar, telefonda multfil'mlar ko'rish bilan ovora. Telefon zarur bo'lib qolganida ota-onalari uning qo'lidan zo'rg'a tortib olisharkan... Yarim tunda ming mashaqqat bilan uyquga yotishga majburlasharkan.

Bir tanishim xarbiy vrach edi. Bolalar xonasida telefonga ko'zi tushsa rang-ro'yi o'chib ketadi. Darhol butunlay o'chirib, xonadan tashqariga chiqarib tashlaydi. Ayniqsa, homilador ayollar va chaqaloqlar bor uyda telefonning o'chirilgan bo'lsada, atiga elektr quvvati olayotgan holida turganini ko'rsayam iztiroblarga to'lib ketadi. Fojea ustidan chiqqanday ahvolga tushganday dir-dir titrayadi.

- Reaktiv samolyotning matorini o't olayotgan paytida yaqinida bo'lganmisiz? – Deydi azobdan to'g'anib, - Ovozining balandligiga, qulqoni qomatga keltirishiga chidab bo'lmaydi. Harbiy xizmatda bunga bazo'r chidardik va qochgani joy topolmasdik. Keyin tinch joyga chiqqanimizda ham bosh og'rig'u miya gangishlaridan o'zimizga kelolmay yuramiz. Aslida, telefonlarning kompiyuterlarning megabayti ana o'shandan o'n barobar kuchli magnit to'lqinlariga ega. Ayniqsa, elektr quvvati olayotgan paytida odamni o'ldirish darajasida elektro magnit to'lqinlari kezinishidan faqat mutaxassislargina xabardor. Bu elektro to'lqin ana o'sha reaktiv samolyot shovqinidan o'n barobar havfli shovqin hisoblanadi...

Internet tarmog'ida g'alati bir maqolani o'qib qoldim. Hojatxonaga kirganda telefondan mutlaqo foydalanmaslik, aslida olib kirmaslik tavsiya qilingandi. Tor joyda elektro to'lqinlari sezilmagan holda insonga o'ta og'ir shikastlanishlarni yetkazayotganligini bilmas ekansan.

Nafaqat bolalar, balki kattalar ham yostiqlari oldiga quvvat olish uchun qo'yilgan telefon bilan uxlayotganliklaridan dahshaga tushish lozim ekan!

Hozirda atigi uch yasharlik bolasi telefonni hayratlanarli boshqarayotgani, xatto o'zi ham bilmaydigan usullarni bilishidan g'ururlanib maqtanayotgan ota-

Modern education and development

onalarni ko'rib, rosti achinasan. Kelajagidan qo'rquvga tushasan. Aslida, bolaning qo'liga bomba tutqazib qo'yganimizdan kam ahvolda emasligimizni tushuna olsak edi!..

Bolarimizning sarkash bo'lib qolgani, injiqligi, tabiat og'irligi, gapga ko'nmasligi janjalkashligi va doimiy asabda, sarkashlikda ekanining tub sabablarini bilmay dog'damiz. Ogoh bo'ling, bolalar robotga aylanishyapti! Manqurt, deya ayuhannos solamizu, manqurtlikka bolalarimizni tayyorlab borayotganimizni sezmayapmiz. Bolalarni elektro magnit nurlanishlardan asrang!..



Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, hozirda telefon o'yinlariga qiziqayotgan bolalarning aksariyati o'n besh – o'n olti yoshlarga borganidayoq ruhiy kasallar qatoriga kirib qolganday, boshqarib bo'lmaydigan mutant larga aylanib qolganini sezmay qolamiz...

Hurmatli ota –onalar ! Davlatimiz farzandlaringiz kelajagi uchun bor imkonyatlarni, sharoitlarni yaratib bermoqda jumladan: Xozirgi kunda mакtabда bir qator ishlар amalga oshirilmoqda .

O'quvchilarni to'g'ri kasb-hunarga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalariga tayyorlash va farzandlaringizni ruhan va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun turli-xil mashg'ulotlar va sayoxatlar , turli soxa vakillari bilan uchrashuvlar "Farzandlarimiz kelajagiga befarqorq bo'lmaylik"kabi aksiysini o'tkazilishi xam bolalaringizni xayotga va kelajagiga qiziqishini oshirib kelmoqdalar shunday ekan siz xam farzandingiz kelajagiga befarq bolmang.

“Qush uyasida ko’rganini qiladi”deb bejizga aytishmaydi farzandingizni turli xil qaysarliklarini , injiqliklarini yengish uchun qo’liga telefon emas balkim ertaklar o’qib bering ,birga o’ynang,birgalikda kitob o’qing,sport to’garaklariga jalb qiling, ularning kelajagi uchun vaqtingizni ko’proq qismini ajrating shunda orzuyingizdagi mehribon bola bo’lib voyaga yetadi.

Bolalar taqdiriga befarq bo’lmang, deya hayqirging keladi.

FAYDANLANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.G’oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent 2008 y.
Y.Jumanazarov”Yosh davrlar psixologiyasi” Namangan 2013 y1. E.G’oziyev
“Umumiy psixologiya” Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov ” Yosh davrlar psixologiyasi” Namangan 2013 y
- 3.Fayziyev. Ya.M. ”Umumiy va tibbiy psixologiya”Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000